



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марксовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридиневич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий  
педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Nilufar Djurayeva</b> SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
<b>2. Guldon Taniyeva</b> O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
<b>3. Hikmatjon Avezov</b> O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
<b>4. Iskandar Samadov</b> XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
<b>5. Фируза Абдюсупова</b> В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
<b>6. Nasiba Narzullayeva</b> SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
<b>7. Istora Jo'rayeva</b> XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
<b>8. Muslima Makhmudovna Bazarova</b> THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
<b>9. Diyora Chorshanbiyeva</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
<b>10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova</b> O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
<b>11. Mohira Matnazarova</b> KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
<b>12. Iroda Tishabayeva</b> 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76




**Guldona Mamanovna Taniyeva**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Jahon tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc)

## **O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN**

**For citation:** Guldona M. Taniyeva. FEATURES OF PILGRIMAGE TOURISM UZBEKISTAN: PAST AND PRESENT. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.15-19

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806062>

### **ANNOTATSIYA**

O'zbekiston hududidagi ziyorat turizmi maskanlari, urf-odatlar asosan Islom mafkurasi va tasavvuf tariqatlari go'yalari asosida shakllangan. O'zbekistonning geografik joylashuvidagi o'ziga xoslik, o'tmishda kechgan siyosiy, ijtimoiy jarayonlar bu mintaqada ziyorat masalasining o'ziga xos jihatlarga ega bo'lishini ta'minlagan.

Maqolada O'zbekistonda islom, tasavvufga bog'liq ziyoratgohlar, ziyorat turizmining tarixiy, nazariy ildizlari, bugungi kunda sohadagi o'ziga xos jihatlari, muammo va yechimlar hususida ilmiy mulohazalar, xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, ziyorat, turizm, islom, sufizm, urf-odat, ziyoratgoh, gidlar

**Гульдона Мамановна Таниева**

Ташкентский государственный педагогический университет,

профессор кафедры Всемирная история,

доктор исторических наук (DSc)

## **ОСОБЕННОСТИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА: ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

Места и традиции паломнического туризма в Узбекистане в основном сформированы на основе исламской идеологии и учений суфизма. Уникальность географического положения Узбекистана, а также происходившие в нем политические и социальные процессы обусловили то, что проблема паломничества в этом регионе имеет свои уникальные аспекты.

В статье приводятся научные наблюдения и выводы об исторических и теоретических корнях паломнического туризма в Узбекистане, его специфических аспектах, проблемах и решениях в этой области на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** Узбекистан, паломничество, туризм, ислам, суфизм, традиции, место паломничества, гиды.

**Guldona M. Tanieva,**  
Tashkent State Pedagogical University  
Professor of the Department of World History,  
Doctor of Historical Sciences (DSc)

## FEATURES OF PILGRIMAGE TOURISM UZBEKISTAN: PAST AND PRESENT

### ABSTRACT

Places and traditions of pilgrimage tourism in Uzbekistan are mainly formed on the basis of Islamic ideology and Sufism teachings. The uniqueness of the geographical position of Uzbekistan, as well as the political and social processes that took place in it, determined that the problem of pilgrimage in this region has its own unique aspects. The article provides scientific observations and conclusions about the historical and theoretical roots of pilgrimage tourism in Uzbekistan, its specific aspects, problems and solutions in this area today.

**Key words:** Uzbekistan, pilgrimage, tourism, Islam, Sufism, traditions, place of pilgrimage, guides.

### Dolzarbligi:

Markaziy Osiyoda Islom dini va tasavvuf go'yalari barcha ijtimoiy qatlam vakillari orasida keng yoyilgach, bu holat mintaqada hukmron mafkuraviy muhitni shakllantirdi va o'ziga xos muqaddas ziyoratlar va ziyoratga oid urf-odatlarini vujudga kiltirdi. Albatta bu masala o'z nazariy asoslariga ega edi. Xususan, Islom dinida avvalo Makka shahrida joylashgan Ka'bani ziyorat qilish bajarish shart bo'lgan 5 ta farzlardan biri sanaladi. Shuningdek, unda o'limdan keyingi haqiqiy "boqiy dunyo"ni doimo yodda tutish va yer yuzidagi hayot – "foniy dunyo"ning o'tkinchiligini his qilish uchun qabrlar ziyoratini tez-tez amalga oshirib turishga ham muhim ahamiyat berilgan [3, 129].

Islom dini bag'rida vujudga kelgan tasavvufda ham bajarilishi talab etilgan zikr, xilvat (yoki chilla), robita (shogirdning ruhan o'z piri va ining vositasida Allohning huzurida ekanligini his qilishi), sayru-suluk (nafsnı yengish uchun ruhiy sayohat) kabi amaliy vaziflar qatorida yaba sayohat qilish, ya'ni jismonan sayohat qilish ham muhim sanalgan [9,89]. Tasavvuf g'oyalarida ikki xil sayohat farqlangan bo'lib, ulardan birinchisi ruhiy sayohat, ikkinchisi jismoniy sayohat nazarda tutilgan.

Tasavvufda sayohat Alloh yaratgan go'zalliklarni ko'rib, ibrat olish, vujud va qalb salomatligiga erishish, orif, olimlarga yaqinlashish, murshid izlash, Bayt ul-Haram, Bayt ul-Maqdisni ziyorat qilish, takka(xonaqoh)larni ziyorat qilish kabi maqsadlarda amalga oshirilishi aytiladi [10, 91]. Sufiylarning ruhiy-ma'naviy kamoloti uchun safar qilish eng ma'qul ajru-riyozot turlaridan sanaladi. Shuning uchun birinchidan, haj safarlaridagi jismoniy qiyinchiliklar sufiylar uchun ruhning tarbiya topishi va kamolga yetishishida asosiy yo'llardan biri sanalgan [2, 35]. Ikkinchidan, ular safar davomida o'z suhbatlari va chiniqqan jismoniy irodalari bilan ham boshqa musulmonlarning ma'naviy, ruhiy kamol topishi uchun katta ta'sir o'tkazgan.

Markaziy Osiyoda keng yoyilgan kubroviya tariqatida ham sufiylarning avliyolar mozorlari va maqbaralarini ziyorat qilish, shayxlar huzuriga tashrif buyurish va darvishlar chidam bardoshini amalda sinash kabi uchta maqsadda qilgan sayohat to'g'ri sanalgan. Markaziy osiyolik ko'plab shayxlar, sufiylar musulmon mamlakatlarni ilm olish, haj qilish maqsadlarida piyoda kezib chiqqan [5, 48].

Demak, Markaziy Osiyoda muqaddas ziyorat an'alarining keng ildiz otishida islom dinida ziyorat masalasiga katta e'tibor berilganligi va tasavvufda esa ziyorat, safar bajarilishi shart bo'lgan amallardan biri ekanligi kabi nazariy omillar muhim rol o'ynagan.

Mana shu nazariy omillar zaminida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy va boshqa hayotiy omillarni vujudga keltirgan. Dastlab masalaning ma'naviy omillari xususida to'xtalsak. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo davlatlari hukmdorlari doim tasavvufdagi yirik shayxlardan birini o'zining ma'naviy ustozı, piri deb bilgan, o'zlarini ularning shogirdi (muridi) sanagan, ular dafn qilingan

qabrlarni doimiy ziyorat qilib turishgan (ular hatto vafotlaridan keyin uztozlari qabri yoniga, poyida dafn qilishni vasiyat qilganlar). Bu holat, ya'ni hukmdorlarning shayxlar qabrini (ular qabrlar ziyoratini ko'pincha har haftaning muayyan bir kunida, harbiy yurishlar hamda hajga ketish oldidan, biror mushkul vaziyatga tushganda, qattiq kasallikka chalinganda va boshqa vaqtlarda) tez-tez ziyorat qilib turishi esa oddiy xalqning ulardan o'rnak olishiga hamda ziyoratchilar soninig ortishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, kop'inchagina yirik shayxlar o'zaro qarindosh bo'lgan va asrlar davomida bunday silsila a'zolari bitta qabristonda dafn qilingan [1, 91]. Ular dafn qilingan umumiy qabristonlar ziyoratning uzluksiz davom etishini ta'minlagan va doimiy muqaddas ziyorat maskaniga aylanishiga sabab bo'lgan.

O'z navbatida, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tasavvufning naqshbandiya, yassaviya, kubraviya kabi tariqatlari g'oyalarining boshqa xorijiy yurtlarda keng yoyilishi ham mintaqadagi muqaddas ziyorat masalasining ijtimoiy, ma'naviy o'ziga xosligini ta'minlagan. Chunki, o'z g'oyalari bilan xorij musulmon mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi yirik tasavvuf shayxlarining qabrlarini nafaqat mahalliy aholi uchun, balki xorijlik musulmonlar uchun ham ziyorat qilish orzu bo'lgan va doimiy ziyorat qilingan. Demak, O'zbekiston tuprog'ida dunyo musulmonlari, sufiylari ergashgan bunday yirik allomalar qabrlarining mavjudligi bu zaminda o'ziga xos muqaddas ziyorat an'analari shakllanishida ham ichki, ham tashqi muhim ma'naviy omil bo'lgan.

Shu va shu kabi boshqa omillar ta'sirida XVI – XIX asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda muqaddas qabrlarni ziyorat qilish odati barcha toifa va qatlamdagi musulmonlar orasida keng yoyilgan. Islom dinida shaxsga sig'inish gunoh sanalsa-da, oxiratni eslab turish maqsadida qabrlarni ziyorat qilish mumkin bo'lgan amallardan sanaladi. Ammo, qabrlar ziyorat qilinganda ularda dafn qilinganlar ruhidan madad so'rash joiz hisoblanmaydi. Shunday bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda bunday joylar turli kasalliklardan shifo topish, urushlarda golib bo'lish, farzand so'rash kabi turli maqsadlarda ziyorat qilingan [6, 21]. Bu holat bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Ziyoratchi o'z gunohlarini tan olib, o'zidan ko'ra Allohga yaqinroq deb bilgan avliyolarning qabrini ziyorat qilib, xudoga yolvorar ekan, go'yoki, Alloh o'sha avliyo haqqi-hurmati uchun uning gunohlari kechirib, duolarini ijobat qiladi, deb ishonilgan. Vasila deb atalgan bunday e'tiqodda Allohdan biror hojati uchun ijobatini so'ragan banda o'zi bilan xudo o'rtasida birorta avliyoni vosita qilgan [8,71]. Bu holat musulmonlarning tasavvuf tariqatlari shayxlarini hali tirikligidayoq avliyo sifatida ko'rib, ularning g'oyalari ortidan ergashishi bilan ham bog'liq.

O'zbekistonda ziyorat turizmiga ma'naviy o'ziga xoslikni ta'minlagan yana bir jihat bu musulmonlar uchun eng avvalo ziyorat qilinishi shart bo'lgan Ka'baning geografik jihatdan mintaqadan uzoqda joylashganligi va unga borish mashaqqatli uzoq safarni talab etishi sanaladi. Ammo mintaqada musulmonlarining asosiy qismining uzoq safarni amalga oshirish uchun iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lmagan. Bunday safarlar mashaqqatini yengish uchun yo'lovchidan yetarli jismoniy quvvat ham talab etilgan. Shuningdek, ayollar uchun esa talabdagi mahram – hamroh bilan safarga chiqish sharti ham mavjud bo'lgan. Bu sharoit mahalliy musulmonlar orasida ayrim yirik shayx va avliyolar qabrini muqaddaslashtirilishiga sabab bo'lgan va hatto, bunday joylarni ziyorat qilish haj ziyorati bilan tenglashtirilgan [7, 76].

Endi O'zbekiston zaminida ziyorat turizmi o'ziga xosligining iqtisodiy omili masalasida to'xtalsak. Birinchidan, mintaqada qilingan ko'plab bosqinchiliklar iqtisodiy inqirozli holatlarga sabab bo'lgan. Ikkinchidan, doimiy o'zaro ichki urushlar aholining iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan. Uchinchidan, XVI asrdan boshlab xalqaro suv yo'llaridan uzoqda, jahon bozorlaridan biroz chetda qolgan mintaqada iqtisodiy qiyinchilik hukm surib keldi. Bu omillar asrlar davomida Turkistonda islom, tasavvuf g'oyalaridan, shayxlar, ularning qabri ziyorati va ular ruhlaridan Allohga vosita sifatida taskin olish kayfiyatini kuchaytirib kelgan.

Shunday qilib, O'zbekiston ziyorat turizmi sohasidagi deyarli barcha o'ziga xos jihatlar o'z nazariy, ma'naviy, iqtisodiy tarixiy ildizlariga ega. O'zbekiston zaminida muqaddas ziyorat an'analari va ziyoratgohlarga bu kabi o'zgacha munosabatlarning ko'p jihatlari uzoq asrlar davomida shakllanib, sayqallanib bugungi kungacha yetib kelgan. Bu jihatlar o'tmishda shakllangan

muqaddas joylarning hozirgi kunda ham ziyorat qilinib kelishi, ularni ziyorat qilish urf-odat va an'analarining saqlanib kelayotganligi, bugungi kunda ham ziyoratchilar toifasini, xuddi o'tmishdagi singari, barcha ijtimoiy guruhlariga mansub aholi tashkil etishi, O'zbekistondagi mashhur shayx va allomalar qabri xorijlik musulmon sayyohlar bilan gavjumligi kabilarda namoyon bo'lmoqda.

To'g'ri, sobiq Sovetlar davrining ateistik mafkuraviy bosimi islom, tasavvuf allomalari va ularning go'yalari O'zbekiston tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lganini anglashga yo'l bermadi [4, 23]. Bu bilimsizlik esa ziyorat, ziyoratgohlar va ziyorat amallarining nazariy va tarixiy ildizlarini bilmaslikka, ularni xato talqin qilinishiga olib keldi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun bugungi kunda dastlab O'zbekistonda ziyorat turuzmi sohasida nazariy va tarixiy o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq quyidagi bir qancha ilmiy-nazariy muammolarni hal qilish talab etiladi:

- gidlar masalasi. Zamon talabiga mos bilimga ega, ziyoratning diniy, nazariy, tarixiy ildizlari asl mohiyatini biladigan, ziyoratchilarni qiziqtirgan xonaqoh, takiya, hujra, maqbara, dahma, chillaxona nima va ular qanday vazifani bajargan, kabi savollarga ilmiy asosli javob bera oladigan, tarixiy binolardagi bezaklar, naqshlar, yizuvlarni tahlil qilib bera oladigan gid mutaxassislarini tayyorlash;

- adabiyotlar masalasi. Gidlar uchun maxsus qo'llanmalar, adabiyotlar, ziyoratchilar uchun esa qiziqarli tarixiy, etnografik, dalillarga boy bo'lgan maxsus ilmiy-ommabop adabiyotlar yaratish.

**Xulosa** qilib aytganda, O'zbekistonda bugungi kundagi ziyorat turizmi masalasi o'zining nazariy, tarixiy ildizlariga ega soha sanaladi. Bu sohaning rivoji mana shu ildizlarni chuqur o'rganish va tadqiq etishni, ulardan olingan ilmiy xulosalarga tayanib kerakli ilmiy ommabop adabiyotlar yaratishni va amaliyotga tadbiiq etishni talab etadi.

#### Iqtiboslar/Сноски/Referenses:

1. Абулаббос Муҳаммад Толиб ибн Тождиддин Ҳасанхожа ал-Ҳусайний ас-Сиддиқий. Матлаб ут-толибин / Таржимонлар Ғ.Каримий, Э.Миркомиллов. – Тошкент: Моварауннаҳр, 2016. 91-бет. (Abulabbas Muhammad Talib ibn Tajeddin Hasankhozha al-Husayni as-Siddiq. Matlab ut-talibin / Translators G. Karimi, E. Mirkomilov. – Tashkent: Movaraunnahr, 2016. p. 91)
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 35. (Komilov N. Sufism or perfect human morality. Book 1. - Tashkent: Yozvchi, 1996. - p. 35)
3. Сахиҳул Бухорий. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф ва таржимонлар гуруҳи. –Тошкент: Hilol-nashr, 2021. – Б. 129. (Sahih al-Bukhari. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf and a group of translators. – Tashkent: Hilol-nashr, 2021. – p. 129.)
4. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (1917 – 1960 йиллар). - Тошкент. 2015. 23-бет. (Salmanov A. Religious policy of the Soviet government in Uzbekistan: fiction and historical truth (1917 – 1960). - Tashkent. 2015. p. 23.)
5. Таниева Г.М. Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва тариқатида ҳажга боғлиқ бўлган жиҳатлар хусусида / Ислom тафаккури. 2024. № 3. Махсус сон. 46-51 бетлар (Tanieva G.M. Bahouddin Naqshband's life and aspects related to Hajj / Islamic thought. 2024. No. 3. Special issue. Pages 46-51.)
6. Таниева Г.М. XVI – XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни / Тарих фан.доктори (DSc) ил.даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореферат. - Тошкент. 2022. 21-бет. (Tanieva G.M. The role of the pilgrimage in the spiritual, ideological and social life of the peoples of Central Asia in the mid-16th–19th centuries / Dissertation ABSTRACT for the degree of Doctor of History (DSc). - Tashkent. 2022. p. 21.)
7. Таниева Г.М. XVI – XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни / Тарих фанлари доктори (DSc) ил.даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Тошкент.2022. 76-бет. (Tanieva G.M. The role of the pilgrimage in the spiritual, ideological and social life of the peoples of Central Asia in the mid-

16th–19th centuries / Dissertation written for the degree of Doctor of Historical Sciences (DSc). - Tashkent.2022. p.76)

8. Тожибоев Б. Қабр зиёрати ва васила / Имом ал-Бухорий сабоқлари. № 4, 2013.271-бет. (Tajibayev B. Visiting the grave and the means / Lessons of Imam al-Bukhari. No. 4, 2013. p. 271.)

9. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи / Турк тилидан Н.Ҳасан таржимаси. – Тошкент: Истиклол, 1999. – Б. 89. (Turar Usman. History of Sufism / Translated from Turkish by N. Hasan. – Tashkent: Istiklol, 1999. – P. 89.)

10. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил ҳаёт (Оби ҳаёт томчилари) / Худойберган ибн Бекмуҳаммад таржимаси. Нашрга тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. – Т. 2004. 91-бет. (Fakhruddin Ali Safi. Rashahatu aynil hayat (Drops of the Water of Life) / Translated by Khudaibergan ibn Bekmuhammad. Prepared for publication by M. Hasani, B. Umrzak. – T. 2004. p. 91.)

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000